

## PEDAGOGIK NIZOLAR VA ULARNI OLDINI OLIISH YO'LLARI

Namangan davlat pedagogika instituti

Aniq va Tabiiy fanlar fakulteli

Texnologik ta'lim yo'nalishi

TXT BU 24 guruh talabasi

**Yusufjonova Mohinur Mahmudjon qizi**

Ilmiy rahbar: **Mamatxanova Nargiza**

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada ta'lim muassasalarida yuzaga keladigan pedagogik nizolarning tabiati, ularning kelib chiqish omillari va o'quv-tarbiya jarayoniga ta'siri tahlil qilinadi. Muallif o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda yuzaga keladigan ziddiyatli vaziyatlarning psixologik asoslarini yoritib beradi. Shuningdek, maqolada nizolarni konstruktiv hal etish, ularning oldini olishning samarali pedagogik strategiyalari, o'qituvchining kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish va ta'lim muhitida sog'lom psixologik iqlimni shakllantirish bo'yicha amaliy tavsiyalar keltirilgan. Tadqiqot natijalari nizoli vaziyatlarni barvaqt aniqlash va boshqarish bo'yicha yangi yondashuvlarni taklif etadi.

**Kalit so'zlar:** Pedagogik nizo, o'qituvchi-o'quvchi munosabatlari, nizo profilaktikasi, kommunikativ kompetensiya, pedagogik strategiya, ta'lim muhiti, psixologik iqlim.

**Аннотация:** В данной статье анализируются природа педагогических конфликтов, возникающих в образовательных учреждениях, факторы их возникновения и влияние на учебно-воспитательный процесс. Автор освещает психологические основы конфликтных ситуаций в отношениях между учителем и учеником. В статье также представлены эффективные педагогические стратегии разрешения и предотвращения конфликтов, рекомендации по развитию

коммуникативной компетентности учителя и формированию здорового психологического климата в образовательной среде. Результаты исследования предлагают новые подходы к раннему выявлению и управлению конфликтными ситуациями

**Ключевые слова:** педагогический конфликт, отношения учитель-ученик, профилактика конфликтов, коммуникативная компетентность, педагогическая стратегия, образовательная среда, психологический климат.

**Abstract:** This article analyzes the nature of pedagogical conflicts arising in educational institutions, their contributing factors, and their impact on the teaching and learning process. The author explores the psychological foundations of conflict situations in teacher-student relationships. The article also presents effective pedagogical strategies for resolving and preventing conflicts, recommendations for developing teachers' communicative competence, and fostering a healthy psychological climate within the educational environment. The research findings offer new approaches for the early identification and management of conflict situations.

**Keywords:** pedagogical conflict, Teacher-Student Relations, Conflict Prevention, communicative competence, pedagogical strategy, educational environment, psychological climate

Pedagogik nizolarning asosiy sabablaridan biri bu – pedagogik jarayondagi aloqalar tizimida o‘qituvchi bilan o‘quvchi o‘rtasidagi muomala-munosabatlar katta o‘rin egallaydi. Muallim pedagogik jarayonda asosiy figura, yetakchi kishidir. O‘qituvchi pedagogik ishda fidoiylik ko‘rsatib, muallimlik burchini yuksak darajada bajarib, bolalarga bilim berib, ular qalbiga halollik, go‘zallik, odob-axloq nurini singdira olganliklari, o‘quvchiga nisbatan xushmuomalalikda bo‘lganliklari uchun obro‘ va hurmatga erishganlar.

Afsuski, barcha o‘qituvchilar ham to‘g‘ri tajribaga, yetarli bilim va ko‘nikmalarga ega emas. Ayrimlari o‘quvchilarga yetarli bilim bera olmaslik bilan o‘quvchi ko‘ngliga

yo‘l topa olmasa, ayrimlari qo‘pol muomola, o‘quvchini o‘rinsiz dilini og‘ritish bilan ajralib turadi.

Bunday pedagoglar yoshlar tarbiyasiga, ularning bilim doirasining yuksalishiga, axloqiga salbiy ta‘sir etadilar. Ayniqsa, u boshlang‘ich sinflarga, ularning kelajagiga ham fojeali ta‘sir etadigan darajaga borib yetadi. Natijada o‘quvchi yoshlar kelajakda yetuk marralar, maqsadlarga intilmay, o‘qituvchidek sharaflı kasbga havas qilmay qo‘yadilar.

Bunday bilim berish, muomola jamiyatda umuminsoniy milliy-axloqiy normalarga to‘g‘ri kelmaydi.

Pedagogik jarayonda o‘quvchi talabalar tabiati shu darajada murakkabki, uni to‘g‘ri kelmaydi

Pedagogik jarayonda o‘quvchi talabalar tabiati shu darajada murakkabki unii to‘g‘ri shakllantira borish uchun o‘qituvchidan yuksak malaka kuchli bilim, yetuk tajribali bo‘lishni taqozo etadi. Bazi murabbiylar o‘z talablarini bajarmagan o‘quvchilarga uni tarbiyalash maqsadida ularni turli qo‘pol so‘zlar bilan haqorat qilishi, hatto urishini ham o‘zining nazarida to‘g‘ri deb baholaydi. U shunday qilsa o‘quvchi to‘g‘ri shakllanadi deb o‘ylaydi ham. Bunday holatlar ko‘pincha tarbiyasi og‘ir, nosog‘lom oilada yashayotgan bolalar o‘rtasida vujudga kelishi mumkin. Shunday ekan har bir o‘quvchining oilaviy sharoitidan kelib chiqib uning yashash muhitini o‘rgangan holda yondashishi kerak. Pedagogik jarayondagi aloqalar tizimida o‘qituvchi bilan o‘quvchi o‘rtasida muomalamunosabatlar katta o‘rin egallaydi. Muallim pedagogik jarayonda asosiy figura, yetakchi kishidir. Unga yosh avlodni o‘qitish va tarbiyalash vazifasi yuklatilgan. O‘qituvchi-pedagog ishda fidoiylık ko‘rsatib, muallimlik burchini yuksak darajada bajarib, bolalarga bilim berib, ular qalbiga halollik, go‘zallik, haqiqat, odob-axloq nurini singdira olganliklari, xushmuomalada bo‘lganliklari uchun bunday obro‘-e‘tiborga erishganlar. Men bunga birinchi prezidentimiz I.A.Karimovning quyidagi so‘zlarini misol keltiraman: "Taraqqiyot taqdirini ma‘naviy jihatdan yetuk odamlar hal qiladi. Texnikaviy bilim - murakkab texnologiyani egallash qobiliyati ma‘naviy barkamollik bilan mustaqil tafakkur

bilan birga borishi kerak. Aqliy zakovat va ruhiy-ma'naviy salohiyat ma'rifatli insonning ikki qanotidir". Shunday ekan avvalambor pedagog-muallim o'quvchini xarakteri, xulqini e'tiborga olishi zarur. Hattoki bazi holatlarda o'quvchilarini rag'batlantirib turish ham zarar qilmaydi. O'quvchining qiziqishini shakllantirish, yoqtirgan faniga qarab rag'batlantirish, masalan, oilaviy sharoiti tufayli darsga tayyor holda kelmagan o'quvchi yoki kasalligi tufayli dars tayyorlamagan o'quvchi bo'lsa shunga qarab munosabatda bo'lish joiz. Yana bir misol: o'quvchi oyog'i qaltisganligi, aksincha biror kasalligi sababli jismoniy tarbiya darsidan voz kechishi, bosh og'rig'i tufayli adabiyot darsida aktiv bo'lmasligi mumkin. Bunday vaziyatlarda har bir o'quvchiga individual yondashib dars o'tish maqsadga muvofiqdir. Afsuski hamma muallimlar haqida ham shunday deb bo'lmaydi. O'zining dag'al muomalasi bilan bolaning ko'nglini o'qishdan sovutib, dilini o'rinsiz ranjitadiganlar ham uchrab turadi.

Pedagogik amaliyotda bunga misol bo'ladigan dalillar ko'p. Bundaylar yoshlar tarbiyasiga, ularning axloqiga salbiy ta'sir etadilar. Tarbiyaviy ishlarga tuzatishi qiyin bo'lgan darajada ziyon yetkazadilar. Natijada o'qituvchi bilan o'quvchi-talaba o'rtasida nizolar vujudga keladi. Barkamol ijodkor shaxsni shakllantirishga, tarbiyalashga doir axloqiy normalar pedagogik etikada ifodalangan. Tarbiyalanuvchiga ijobiy ta'sir o'tkazish shartlaridan biri bo'lgan ishonch bilan unga nisbatan qo'yilayotgan talablarning birligidir. Bu qonuniyat pedagogik amaliyotda ko'p sinovdan o'tgan va o'zini oqlagan. Muallimlar talabalar bilan o'tkazilgan suhbat natijalari shundan dalolat beradiki, maktabda xushmuomala o'qituvchilar bilan bir qatorda bolalarga xuda-bexuda do'q urib, baqirib muomala qiladigan o'qituvchilar ham uchraydi. Bunday muomala jamiyatda qabul qilingan umuminsoniy va milliy axloqiy normalarga to'g'ri kelmaydi. Bunday o'qituvchilar bolalar o'rtasida obro' orttira olmaydilar.

Pedagogik jarayonda, tarbiya jarayonida, odamlarning tabiati shu darajada murakkabki, muallim ba'zan istasa-istamasa qo'pollik qilishga majbur bo'ladi. O'quvchi muallimning o'rinli talablarini bajarmayotgan paytlarda u o'zini tuta olmay qoladi. Muallim o'z talablarini, hatto qo'pollik holatini ham bolaga yaxshilik qilayapman deb

hisoblaydi, chunki bu ishni bolaga bilim berish, uni to‘g‘ri yo‘lga solish, yaxshi odam qilib tarbiyalayotganligi uchun qilayotganiga ishonadi. Abdulla Avloniyning “Tarbiya biz uchun yo hayot - yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir” degan chuqur ma’noli so‘zlari bildirilgan fikrimizga hamohangdir. Bunday holatlar ko‘pincha tarbiyasi qiyin bola bilan muomala-munosabatlar jarayonida sodir bo‘ladi. Shuni ham unutmaslik lozimki, bunday bola odatda nosog‘lom oiladan chiqadi. Bola oiladagi yomon muhit qurboni bo‘lishi ham mumkin. Tajribali pedagoglar tarbiyasi qiyin bola bilan ishlash, muomala qilish murakkabligini, shu bilan birga ular insoniy mehrga zor, xushmuomalaga, e’tiborga muhtoj ekanligini, bundaylarga nisbatan bardoshli, sabr-toqatli, kechirimli bo‘lish zarurligini ham ta’kidlaydilar. Muallimning biror tasodifiy hatti-harakati natijasida o‘quvchilarda u haqida sodir bo‘lgan fikr ham ta’lim-tarbiya jarayoniga salbiy ta’sir etishi, muallimning ishini murakkablashtirishi mumkin. O‘qituvchining o‘quvchi-talabalar bilan ish yoki shaxsiy ish yuzasidan ayrim vaqtlari kelishmovchiliklari bo‘lib turadi. O‘quvchi atrofdagilarning unga bergan bahosiga nisbatan tanqidiy qaraydi. Uning kayfiyatidagi ranjish va ikkilanishning sababi ham ana shunda. Tasodifiy muvaffaqiyat yoki kattalarning rag‘bati bolaning o‘ziga ortiqcha baho berishiga, o‘ziga haddan tashqari ishonuvchanlikka olib keladi. Aksincha, tasodifiy muvaffaqiyatsizlik bolada o‘z kuchiga ishonmaslikni uyg‘otishi, ikkilanish, juratsizlik va uyatchanlik hissini oshirib yuborishi mumkin. Shuning uchun o‘qituvchi va tarbiyachilarning bolalar bilan bo‘ladigan munosabati alohida nazokatni talab etadi.

Pedagogik nizo tushunchasi. Pedagogik nizo bu - o‘qituvchi bilan o‘quvchining kelishmovchiliklari.

Pedagogik nizolarning bir qator belgilari quyidagilardir:

- a) Inqiroz;
  - b) Anglashilmovchilik
- Kutilmagan hodisa;
- d) Zo'riqish;
  - e) Noqulaylik;

- f) Ichki yoki tashqi xavotir;
- g) Bartaraf etish qiyin bo'lgan qo'rquv.

Pedagogik nizolarni keltirib chiqaruvchi omillar:

- I. Axborot omili;
- II. Munosabat omili;
- III. Xulq omili.

Xulosa qilar ekanmiz buyuk Chex pedagogi Yan Amos Komineskiyning asarlaridagi quyidagi fikrini keltiramiz: “O’qituvchilik har qanday kasbdan ko’ra yuqoriroq darajada turadi”. Gohida bir kishi bitta bolaga tarbiya beraolmasligi mumkin, lekin muallim bolalarga ilmu-adab o’rgatadi, bu mashaqqatlarni o’z boshidan kechiradi. Shu bois muallimga qulluq qilsa arziydi. Zamonaviy o’qituvchi ijtimoiy psixologiyada ham pedagogikada ham o’quvchilar o’rtasidagi o’zaro munosabatni, ijtimoiy psixologik munosabatlardan foydalanishni bilishi, oldini qaytara olishi zarur. Bo’lajak pedagog pedagogik nizolarning yuzaga kelish asoslari bilan tanishishi, ya’ni bunday nizolarni kelib chiqish sabablarini anglashi, shu o’rinda turli nizolarni oldini olish, bartaraf etish usullari haqida nazariy bilimlarni amaliyotda keng tatbiq eta olishi lozim. Shunday ekan bo’lajak pedagoqlardan yuksak bilim, tajriba, o’z kasbiga sadoqat va mahorat talab etiladi.

Pedagogik strategiya — bu o’qituvchining ta’lim-tarbiya jarayonida o’z oldiga qo’ygan maqsadlariga erishish uchun tanlagan, tizimli va ongli ravishda amalga oshiriladigan harakatlar majmuidir. Oddiy so’z bilan aytganda, bu o’qituvchining «Nima qilishim kerak?» (maqsad) va «Qanday qilib eng samarali tarzda erishishim mumkin?» (yo‘l) degan savollarga bergan ilmiy asoslangan javobidir.

Pedagogik strategiya shunchaki dars o‘tish rejasi emas, balki o‘quvchilarning bilim olish jarayonini boshqarish, ularning fikrlash qobiliyatini rivojlantirish va shaxs sifatida shakllanishini ta’minlash uchun ishlab chiqilgan "yo‘l xaritasi"dir.

### Pedagogik strategiyaning asosiy tarkibiy qismlari

Strategiya yaratish jarayonida quyidagi omillar hisobga olinadi:

1. Maqsadni aniqlash: Natija qanday bo‘lishi kerak? (Masalan, shunchaki faktlarni yodlatish emas, balki tanqidiy fikrlashni rivojlantirish).

2. O‘quvchilar psixologiyasini tushunish: Strategiya o‘quvchilarning yoshi, qiziqishi, bilim darajasi va individual xususiyatlariga moslashgan bo‘lishi kerak.

3. Metod va vositalarni tanlash: Maqsadga yetish uchun interaktiv o‘yinlar, texnologik vositalar, guruhli ishlash yoki loyihaviy topshiriqlardan qaysi biri samaraliroq?

4. Monitoring va baholash: Jarayon davomida o‘quvchi qanday o‘zgarmoqda? Strategiyani qayerda o‘zgartirish yoki tuzatish kerak?

### ### Pedagogik strategiyaning ahamiyati

\* Samaradorlik: O‘qituvchi vaqtni to‘g‘ri taqsimlaydi va mavzuni o‘quvchilarga tushunarliroq yetkazib beradi.

\* Motivatsiya: Strategik yondashuv o‘quvchilarda fanga bo‘lgan qiziqishni uyg‘otadi.

\* Natijaviylik: Ta’lim jarayoni tasodifiy emas, balki aniq natijaga qaratilgan bo‘ladi.

\* Moslashuvchanlik: Strategiya o‘qituvchiga dars jarayonidagi kutilmagan vaziyatlarga (masalan, o‘quvchilar mavzuni tushunmay qolsa) tez va to‘g‘ri javob berish imkonini beradi.

### ### Zamonaviy pedagogik strategiyalar namunalari

Bugungi kunda ta’limda keng qo‘llaniladigan bir nechta strategiyalar:

\* Muammoli ta’lim (Problem-based learning): O‘quvchilarga tayyor javoblar berilmaydi, balki muammo tashlanadi va ular o‘z izlanishlari orqali yechim topishadi.

\* Hamkorlikda o‘qitish (Collaborative learning): O‘quvchilar kichik guruhlariga bo‘linib, birgalikda vazifani bajarishadi. Bu ijtimoiy munosabatlarni ham rivojlantiradi.

\* Gamifikatsiya (O‘yinlashtirish): O‘quv jarayoniga o‘yin elementlarini (ballar, darajalar, raqobat) kiritish orqali ishtiyoqni oshirish.

\* Loyihaviy yondashuv (Project-based learning): O‘quvchilar uzoq muddatli loyiha ustida ishlab, nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llashadi.

Pedagogik strategiya — bu ijodkorlik va fan (psixologiya va didaktika) uyg‘unligidir. U o‘qituvchini shunchaki "axborot uzatuvchi"dan "o‘quv jarayonining me’mori"ga aylantiradi. Strategiyasi bor o‘qituvchi o‘z o‘quvchilari uchun nafaqat bilim manbai, balki yo‘l ko‘rsatuvchi ustoz hisoblanadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- Jo'rayliv V.I. "Pedagogik mojarologiya asoslari" darslik. 1995. Rossiya.
- Haydarov S.A. "O'zbekiston Respublikasi ta'lim sohasidagi islohotlar". 2021. Toshkent.
- Ochilova M. "Yangi pedagogika texnologiyalari".
- Khaydarov, S. A. (2021). The role of the use of fine arts in teaching the history of the country. International scientific and practical conference: CUTTING EDGE-SCIENCE. In Conference Proceedings (pp. 41-43).
- Davrenov, J., & Haydarov, S. (2021). TARIX FANINI O'RGANISHDA XVI-XVIII ASRLARDA YAPONIYA DAVLATI TARIXINI AHAMIYATI. Scientific progress, 1(6).
- Narmatov, D., & Haydarov, S. (2021). TARIX FANINI O'QITISHDA ISPANIYA XV-XVII ASRLARDAGI TARIXI. Scientific progress, 1(6).
- Elguzarov, B. B. O. G. L., & Haydarov, S. (2021). TARIX FANINI O'RGANISHDA MITANNI DAVLATCHILIGINING O'RNI VA AHAMIYATI. Scientific progress, 1(6), 616-619.
- Erkinov, A. S. O., & Haydarov, S. (2021). YUNON-BAQTRYA PODSHOLIGINING IJTIMOYI TUZIMI, XO'JALIGI VA MADANIYATI. Scientific progress, 1(6), 620-622.
- Nematov, M. D. O., & Haydarov, S. (2021). TARIX FANINI ORGANISHDA SHUMER-AKKAD DAVLATCHILIGINING ORNI VA AHAMIYATI. Scientific progress, 1(6).
- Ermatov, F., & Haydarov, S. (2021). TARIX FANINI O'QITISHDA 1870-1914 YILLARDA ANGLIYANING O'RGANILISHI. Scientific progress, 1(6).
- Do'Stmurodov, S., & Haydarov, S. (2021). TARIX FANINI O'QITISHDA XVI-XVIII ASRLARDA HINDISTONNI O'RGANISH. Scientific progress, 1(6).
- Mengboyev, S. N., & Haydarov, S. (2021). TARIX FANINI O'QITISHDA URARTU PODSHOLIGINING O'RNI. Scientific progress, 1(6).
- Asqarov, N. S. O., & Haydarov, S. (2021). ARAB XALIFALIGINING POYTAXTI BAG'DODNING TANAZZULGA YUZ TUTISHI. Scientific progress, 1(6).
- Ro'Zmetov, J., & Haydarov, S. (2021). TARIXNI O'RGANISHDA SOSONIYLAR